

Gavharimsan, Ona tilim

Joriy o'quv yilining 21-oktabr kuni Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining **35 yilligi** munosabati bilan „**Gavharimsan, Ona tilim**“ nomli madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda akademik litsey mas'ullari, SamDCHTIdan tashrif buyurgan mehmonlar hamda o'quvchilar ishtirok etishib, ona tilimiz qadr-qimmati, uning milliyligi hamda davlatchiligimizda tutgan o'rni haqida so'z yuritishdi.

O'quvchilar ona tilimizga bag'ishlangan ijod na'munalari bilan yig'ilganlarga xush kayfiyat baxsh etish bilan bir qatorda ona tilimizni o'zida mujassam ettirgan turli she'r, raqs hamda sahna ko'rinishlari bilan tadbir kuzatuvchilarning olqishlariga sazavor bo'lishdi. Tadbir so'ngida tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilarga estalik sovg'alari topshirildi.













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati